

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI**

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U  
ASBOBLARI KAFEDRASI**

***KUNDUZGI BO'LIM***

**Mavzu: «Xalq musiqa ijodi-o'quvchilarni axloqiy estetik tarbiyalashda  
muhim vosita sifatida»**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: Qurbonboyeva Xafiza**

**Ilmiy rahbar: prof. A.Ergashev**

Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2012 – yil 25–maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya yetildi. ( bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

Ye.K.Djalilov

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2012 – yil \_\_\_\_ – iyundagi majlisida himioya qilindi va \_\_\_\_foizga baholandi. (bayonnoma № \_\_\_\_)

YakDAK raisi:

A'zolari:

---

---

---

---

**Reja:**

## **KIRISH**

### **I bob.**

**Xalq musiqa ijodi – o'quvchilarning axloqiy estetik tarbiyalashda muhim vosita sifatida**

- 1.1 O'quvchilarni ahloqiy – estetik tarbiyalashda xalq ijodi ahamiyati
- 1.2. Xalq musiqa ijodini musiqa madaniyati darslariga joriy etish yo'llari

### **II bob.**

**Toshkent–Farg'ona milliy uslublarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni musiqa darslariga joriy etish muammolari**

- 2.1.Toshkent–Farg'ona musiqiy mahalliy uslublarini o'ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Maktab musiqa darslarida Toshkent–Farg'ona musiqiy mahalliy uslublarini joriy etish yo'llari.

### **III bob.**

**Musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarni shakllantirish.**

- 3.1. O'rta 7-sinf musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarini tutgan o'rni

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**Ilova**

## Mundarija

Kirish.....	3
<b>I bob. Xalq musiqa ijodi – o’quvchilarning axloqiy estetik tarbiyalashda muhim vosita sifatida</b>	
1.1 O’quvchilarni ahloqiy – estetik tarbiyalashda xalq ijodi ahamiyati.....	8
1.2. Xalq musiqa ijodini musiqa madaniyati darslariga joriy etish yo’llari .....	17
<b>II bob. Toshkent–Farg’ona milliy uslublarining o’ziga xos xususiyatlari va ularni musiqa darslariga joriy etish muammolari</b>	
2.1.Toshkent–Farg’ona musiqiy mahalliy uslublarini o’ziga xos xususiyatlari.	26
2.2. Maktab musiqa darslarida Toshkent–Farg’ona musiqiy mahalliy uslublarini joriy etish yo’llari.....	34
<b>III bob. Musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarni shakllantirish.</b>	
3.1. O’rta 7-sinf musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarini tutgan o’rni.....	40
Xulosa .....	54
Foydalanilgan adabiyotlar .....	55
Ilova.....	

## **Kirish**

Bugungi davrimiz – milliy qadriyatlarimizning tiklanish jarayonini, ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an'analарimizni har tomonlama o'rganishni taqazo etmoqda xalqimizning bebaho ma'naviy mulk bo'lgan, milliy kuy-qo'shiqlarimiz hozirgi vaqtda yosh avlodni ahloqiy – estetik ruhda tarbiyalashda muhim vosita sifatida alohida ahamiyatga ega. Xalq musiqa ijodi – qo'shiqchiligimiz tarixi bilan bir necha asrlardan buyon yashab kelayotgan mehnat, marosim, epik, yalla, lapar, katta ashula, mavsum qo'shiqlari (Navruz, xalq bayrami) lirik asarlar va qo'shiqchilik san'atini rivojlanishiga xissa qo'shgan ustoz bastakorlar ijodini o'z ichiga oladi. Eng muhimi ichki kechinmalar bu asarlarda yaqqol o'z aksini topgan. Maktab o'quvchilarini ahloqiy – estetik tarbiyalashda xalq musiqa ijodiniahamiyati juda katta. Shuning uchun ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Davlat ta'lim Standartlari dasturida milliy musiqamiz, mumtoz asarlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, o'zbek xalq ijodiga katta e'tibor berilib, dasturga kiritilgan I-VII sinfgacha musiqa fani dasturi oddiydan murakkabga tamoyili asosida, o'zbek xalq cholg'u asboblardan, xalq kuy – qo'shiqlardan boshlab mumtoz asarlar maqom san'ati tarixi va shashmaqom ashulalarini o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablarida yosh avlodni ahloqiy – estetik tarbiyalash, ta'lim – tarbiya jarayonini asosiy masalalaridan biri deb qaralmoqda. Musiqa san'atidagi bu kabi imkoniyatlar o'quvchilarni barkamol inson bo'lib yetishlarida o'ziga xos takrorlanmas manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bitiruv malakaviy ishinni dolzarbligi shundaki, musiqa madaniyati darslarida, o'zbek xalq musiqa ijodini o'rgatish orqali, maktab o'quvchilarida xalq musiqa ijodiga qiziqishi, mehr-muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, odob – ahloq, go'zallikni xis eta olish va qadrlash tuyg'ularini tarbiyalash.

**Mavzuning dolzarbligi:** Yosh avlodni xalqimizning an'analari, qadriyatlari va musiqiy merosi asosida tarbiyalash, xususan, xalq musiqa ijodiyoti orqali ularning axloqiy estetik madaniyatini shakllantirish, muhim va dolzarb masaladir. Xalq qo'shiqlari da aks etgan g'oyaviy – badiiy mazmun orqali ularni

har biri halq hayotining ma'lum bir ko'rinishini badiiy ifodasi ekanligini bilib olish mumkin. Bu esa yoshlarni ma'naviy ahloqiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

Musiqqa pedagogikasi sohasida tadqiqot ishlari olib berilgan, ko'pgina dissertasiya ishlari xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchi – yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash muammosi atroflicha yoritilgan bo'lsada (A.Sh.Hasanov, H. Nurmatov, B.Azimov, N.Toliboyev, M.Qosimova, I.Qudratov, I.Ismoilova va boshqalar) ularni birontasida ham xalq musiqqa ijodiyoti orqali o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasi maxsus, mustaqil muammo mavzusi sifatida tadqiq etishgan.

**Tadqiqot maqsadi:** Xalq musiqqa ijodiyoti orqali o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy fazilatlarishakllantirish pedagogik asoslarini tadqiq etishva ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti:** IV sinf o'quvchilari.

IV sinf o'quvchilari psixologik – fiziologik harakteriga ko'ra hayotiy tajribalarga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tiborlari turg'unlashgan, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, xati jixatdan kattaroq bo'lgan musiqqa asarlarini tinglashga qodir bo'ladilar. Ikki ovozda kuylash malakalariga ega bo'ladi. Musiqqa savodidan notaga qarab kuylash qobiliyatiga ega, serharakat bo'ladilar.

**IV sinfda yil mavzusi:**

**I-chorak:** O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari.

**II-chorak:** Xalq ashulalari va ashula yo'lidagi kuyla

**III-chorak:** Bastakorlik uslubi haqida ma'lumot

**IV-chorak:** Bastakorlik ijodida xalq musiqasi.

Tadqiqotning nazariy metodik asoslarini: Prezident I.A.Karimov asarlari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dastur», Davlat farmonlari olimlarning risolalari, Davlat Ta'lim Standartlari dasturlari tashkil etadi.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov – «Musiqqa san'atini jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida gapirib, musiqqa tarbiyasi sohasini islohati bugungi dolzarb, ertangi taqdiri shuni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda, ma'naviyat

inson hayotini go'zallashtiridi, turmushiga mazmun va mahorat bag'ishlaydi» - deganlar.

Sharq mutafakkirlari barkamol insonni shakllantirishda musiqa tarbiyasini o'rni va mazmunini o'z asarlarida yortib berganlar. Bobomiz A.Navoiy o'z asarlarida «Faqat musiqagina odamning qalbiga mutanosiblik va o'z – o'ziga qanoat tuyg'usini olib kiradi, uni bahtiyor qiladi» degan edilar. Musiqa ta'limini rivojlanishiga xissa qo'shgan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim mutafakkir Abu – Nosr Al Farobiy «Buf an tana sog'lig'i uchun foydalidir» degan edilar, «Inson uning shakllanishi, tafakkur dunyosining kengligiga qarab bilgilanadi».

Musiqa san'ati insonni ezgulikka, poklikka, yaxshilikka yetaklaydi, deydi – mutafakkirlarimiz Ahmad Donish. Bu borada buyuk olim Abu Ali Ibin Sino «Daraxtning yetukligi mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloq bilan yakunlanadi» deydi.

**Tadqiqot predmeti:** O'zbek xalq musiqa ijodiyoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy shakllantirish mazmuni, shakl, usullari.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. «Xalq musiqa ijodi» - haqida adabiyotlarni, o'quv qo'llanmalar, jurnal va ro'znomalardagi manbalarni o'rganib chiqish.

2. Xalq musiqa ijodi janrlarini o'rganish.

3. Xalq musiqa ijodini sozandalik, xonandalik va bastakorlik san'ati bilan tanishish.

4. Maktab o'quvchilarini xalq musiqa ijodini o'rganishga undan mafnaviy ozuqa olishga o'rgatish.

**Tadqiqot metodlari:** pedagogik kuzatuv, tahlil, savoljavob, anketa-surov, tajriba sinov, matematik statistik.

**Tadqiqot ilmiy yangiligi:** - Xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchilarni ma'naviy axloqiy shakllantirishning nazariy – amaliy asoslari o'rganildi.

- Xalq qo'shig'i orqali o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy shakllantirish mazmuni belgilandi.

- Xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijasida musiqa pedagogikasi fani xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchilarning ma'naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirishga;

- Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy shakllantirish mazmuni shakl usullari aniqlab berildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari.** Xalq musiqa ijodini yoritilishi bo'lgan jabhalari, bugungi kunda chuqur izlanishlar uchun keng imkoniyatlarga ega. Umumta'lim maktablarida xalq musiqa ijodini o'rganishning ahamiyati kattadir. Chunki, xalq musiqa ijodi professional musiqaning asosidir. Boshlang'ich sinflarda xalq musiqasini o'rganishda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki xalq musiqasi o'zi yaratilgan davrning mohiyatini baxt – saodati yo'lidagi orzu – istaklarini aks ettiradi. Ya'ni xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tipga egadir. Shuni hisobga olgan holda pedagog olimlar, ilg'or o'qituvchilar, bastakorlar, musiqashunoslar tomonidan yaratilgan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, darsliklar ishlab chiqilmoqda. Bular: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Davlat ta'lim standartlari dasturi va darsliklar hisoblanadi.

«Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti» – o'quv qo'llanma R.Tursunov, Toshkent – 2002 y.

«Musiqqa folklor ijrochiligi» - o'quv qo'llanma; Nozim Qosimov Toshkent – 2003 y.

«Xalq uylarini notalashtirish» - o'quv qo'llanma, R.Tursunov; Toshkent – 2002 y.

«Surxon qo'shiqlari» - o'quv qo'llanma, Muzaffar Naimov, Toshkent – 1997 y.

I-II-III sinf musiqa darsliklari H.Nurmatov va boshqalar.

IV sinf musiqa darsligi O.Ibraximov va boshqalar.

Mening bitiruv malakaviy ishim kirish, Asosiy qism (Iibobdan) va hulosadan iborat.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy» dasturi, Umumiy o'rta ta'limning musiqiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim Standarti va o'quv dasturi, Prezident I. Karimovning ta'lim tarbiyaga oid asarlari, ma'ruza va nutqlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek pedagogik, psixologiya, san'atshunoslikka oid manbalar.

**Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 paragraf, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatida iborat.



## **I.bob XALQ MUSIQA IJODI – O’QUVCHILARNING AXLOQIY ESTETIK TARBIYALASHDA MUHIM VOSITA SIFATIDA**

### **1.1. O’quvchilarni ahloqiy – estetik tarbiyalashda xalq ijodi ahamiyati**

Musiqqa o’z tabiatiga ko’ra, insonlar hayotini, ularning voqiylikka bo’lgan munosabatini va turli ichki kechinmalarni xilma – xil tovush buyoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir eta olish orqali ularning ma’naviy – ahloqiy dunyosini takomillashtiradi. Olijanob fazilatlarni kamol toptirishda vosita bo’lib xizmat qiladi. Xalqimizni bebaho ma’naviy mulki bo’lgan milliy kuy – qo’shiqlarimiz nafaqat so’z va ohang boyligi bilan, balki o’zbek xalqimizni o’ziga xos turmush tarzlarida, milliy cholg’u sozlari, milliy qadriyatlari, madaniy udumlari bilan diqqatga sazovardir. Xalq musiqasi turli mehnat sharoitida, tarixiy voqyealardan, xushchaqchaq o’yin - kulgi yoki musibatlarida yaratilib, uzoq yillar davomida sayqallanib, avloddan – avlodga, og’izdan – og’izga saqlanib keladi. Har bir milliy musiqaning asosi xalq musiqasidir. O’zbek xalq musiqasi xalq ijodining boshqa turlari singari, sodda ixcham va mukammal shakllarga va xilma-xil janrlarga boy.

Xalq qo’shiqlariii jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni so’zma so’z yodlamasdan, balki unga ijodiy munosabatda bo’lib o’zidan nimadir qo’shib boyitib boradi. Unda milliy musiqqa san’atimizning eng yorqin namunalarinafosati xalqning falsafiy tafakkurga boy teran fikr va g’oyalar o’z aksini topgan. Xalq musiqasi zaminida har bir millatning o’z boshida kechirgan tarixiy voqyealarini, uning erk va baxt, farovon hayot uchun kurashlarini yaqqol ko’rish mumkin xalqimiz yaratgan musiqqa merosi ulkan ma’naviy boyligimiz u yosh avlodning axloqiy va nafosatli tarbiyasi uchun bebaho manba bo’lib hisoblanadi.

Chunki xalqimiz musiqaning nafis va orombaxsh turi bo’lgan «ona allasi» hali tili chiqmagan bola bishikda yotgan chog’ida idrok eta boshlaydi. Demak xalk musiqasi inson qalbiga eng yaqin bo’lgan san’at turidir. O’zbek xalq musiqasi o’zining badiiy ijrosi va ijrochilik talabalariga qarab ikki turga: I keng xalq

ommasi, II kasbiy (professional) mashshoq honandalar hamda bastakorlik va kompozitorlik kabi zamonaviy musiqa ijodiyoti tarmoqlariga bo'linadi.

**Birinchisiga** xalq musiqasining ommaviy janrlar: lirik, marosim, mehnat, laparlar, allalar, termalar, epik va bolalar qo'shiqlari kiradi.

**Ikkinchisiga** ma'lum darajada musiqa ma'lumoti va ijrochilik malakasiga ega bo'lgan ustozona musiqiy janrlar kiradi.

Shuningdek, o'zbek xalq musiqasi xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar, bayramlari, mehnat turli marosimlari, musiqaiy janrlari, cholg'u sozlari, ijrochilik mahoratlari bilan to'rtta mahalliy uslubga bo'linadi va quyidagicha nomlanadi.

1. Surxandaryo Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubi.
2. Buxoro Samarqand mahalliy musiqa uslubi.
3. Xorazm mahalliy musiqa uslubi.
4. Farg'ona Toshkent mahalliy musiqa uslubi.

Har bir mahalliy musiqiy uslubi o'z xususiyati va an'alariga ega. Bu uzoq yillar davomida shakllanib, xalqimizning ko'p asrlik musiqiy an'alarini, milliy qadriyatlarini o'rganishga va e'zozlashga chorlaydi. **Masalan:** Surxandaryo Qashqadaryo vohasi – dostonchilik, baxshi san'ati, do'mbira, sibiziq, g'atir pay, chanqobuz cholg'u sozlari bilan;

Buxoro Samarqand vohasi – maqom, shashmaqom mavrigi; erkaklar davra jo'rliqi 2,3 raqs bilan ijro etadi., qarsak, sozandachilik san'ati (ayollar ijodi), qayroqtosh, zang kabi cholg'u sozlari bilan;

Xorazm vohasi – suvorolari, xalq qo'shiq va laparlari, o'yin – raqs kuylari, xalfachilik, dostonchilik va maqom, garmon bo'laman cholg'u san'ati bilan;

Toshkent – Farg'ona vohasi kata ashullar, bolalar folklori, terma, lapar, maqom, dostonchilik, yalla, hamda bastakorlik an'analari tanbur, sato, qo'shnay cholg'u sozlarini o'ziga xosligi bilan bir – biridan ajralib turadi.

Xalq musiqasining eng muhim turi xalq ashulalaridir. Ashula o'zbek vokal musiqasining eng rivojlangan janri, unda ichki kechinmalari, falsafiy fikrlar, eng nozik iuyg'ular ifodalanadi. Ashullada musiqa ijrosidagi nola, qochirma kabi sayqallar ko'p ishlatiladi. Ashullaning yana bir turi – katta ashula. **Katta ashula**

jo'rsiz ijro etiladi, ijrochi etiladi, ijrochi qulida katta yoki lipopcha bo'ladi. Patnis tovushni ma'lum darajada baland chiqaradi, tovushni bir tomonga yo'naltirish va usulni yo'qotmay chertib turish uchun xizmat qiladi. katta ashulani, odatda ikki yoki uch – to'rt ashulachi tik turib ijro etishadi. Har bir ashulachi galma – galdan kirish, avj qismlarini aytishadi, so'ng barovar tugatishadi. Bunday ashulalarga «bir kelsin», «ko'p erdi», «Adashganman», «Shafolat» kabi ashulalar, katta ashulaga misol bo'la oladi. Ashula atamasi birinchi marta XI asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarning, bizgacha yetib kelgan Maxmud Qashg'ariyning «Devoni lug'ati turk» asarida «homug'» shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning ma'nosi surud ya'ni kuylash ma'nosini bildiradi. Qushiqlik ijro etuvchilar qo'shiqchi ya'ni «guyanus» «ashulakash», «laparchi» «ulanchi» deb nomlangan. Ashulalar ko'pchilik joylarda turlicha sozsiz – (qaliq, qayroq, qarsak, likobcha ba'zan dutor, doira, do'mbira) jurligida kuylangan Alla – qo'shiqlarida zaxmatkash, mushtipar, ezilgan, mazlum sharq onasi gavdalanadi. Alla naqoratlarida beshikda yotgan bolaning nomi qo'shib aytiladi, qo'shiq o'zi cholg'usiz ijro etiladi. Ona o'z farzandini kelajakda baxtli saodatli, sog'lom bo'lishini orzu qiladi. Alla mayin, orombaxsh, lirik oxangda aytiladi. Alla bu shunchaki bola uxlatish degan gap emas. Ibn Sinoning so'zlariga qaraganda alla eshitgan bola sog'lom, odobli bo'lib o'sadi, qobiliyati yaxshi rivojlanadi. Ona allalarida o'z jigarbandiga nisbatan undan kutgan orzu umidlarini ifodalaydi, zarb usuli bir maromda tebranuvchi bo'ladi. Unda beshikni tebratishdagi holat aks etadi.

#### Ilova № 1 alla



Lapar – sho'h va raqsona kuy usulida bo'lib odatda yakkaxon, ikki, ba'zan ko'pchilik tomonidan aytishuv tarzida ijro etiladi. Ba'zan zavqqa to'lgan tinglovchilar chapak cholib jo'r bo'ladilar. Bunga xalqimizning «OMON yor», «Ililla yor», «qora soch» kabi mashhur asarlardir. Laparlar xajviy va hazil mutoyiba mazmunida kuylanadi. bunga misol qilib mashhur, taniqli laparchilarimiz Tamara xonim, Tumiod Otaboyevani keltirishimiz mumkin.

## Ilova №2 «qilpillama» O'zbek xalq lapari

---

---

---

---

**Yalla** – bu janr ham quvnoq, raqsona oxangda bo'lib, qo'shiq va raqs bilan ijro etiladigan janrdir. Yalla odatda ko'pchilik bo'lib vokla ansambli va raqs bilan ijro etiladi. Ijrochilar raqs va vokal ansambl guruhiga bo'linib, qarsak chalib o'yinga tushadilar. Bu janrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri samimiy sevgi, mehr – muxabbat visol orzusi armonlarini zavqu – shavq bilan kuylanadi. Yallalarda nozli istig'loli, qadar – qimmatini biladigan vafodor yor obrazi gavdalanadi. M: «Namangan olmasi», «yali - yali», «Bo'g'macha bilagim», «Fabrika», «olmacha anor» kabi yallalar misol bo'la oladi.

## Ilova № 3 «Yali - yali»

---

---

---

---

**Terma qo'shiqlar** – mazmunan ko'proq pandu nasihat, ahloq – odob, insonparvarlik haqida kuylanadi. Ular diapazon jihatdan uncha katta bo'lmagan kuy va ixcham shaklda barmoq vazmindagi she'rlarda kuylanadi. Bunday termalarni baxshilar do'mbra jo'rligida kuylaydilar. M: Chori baxshi ijro etgan «Nasihat» termasini keltirish mumkin.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari – o'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va urf odatlari shakllangan bo'lib ularda xalqimizni dunyoqarashi hayotiy voqyelikka munosabati, orzu – istaklari va ma'naviy marosimlarini aksariyati yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq holda o'tkaziladi. Qadimdan to'rt faslga oid quyidagi marosimlar o'tkazilgan.

1. Qish faslida – yas – yusup, ramazon,
2. Bahor faslida – «Navro'z», shahmoylar, sust xotin, lola sayli
3. Yoz faslida – choy momo,
4. Kuz fasli – oblo baraka, shamol chaqirish.

Mavsumiy marosim qo'shiqlarini eng ko'p namunalari go'zal bahor fasli va «Navro'z bayrami»ga bog'liq bo'lib ijod etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, bu

toifa namunalari asosan bolalar ham kattalar singari aksariyat marosimlarda qatnashib kelganlar. M: «Laylak keldi», «Boychechak», «Qaldirg'och», «Oq terakmi, ko'k terak», «Sust xotin».

#### Ilova № 4 Laylak keldi.

---

---

---

---

Diniy navolar – o'zbek xalqi islom dinini qabul etgan davrdan boshlab, muqaddas qur'oni karim sura va oyatlarini o'qish ahloqiy tarbiya berish maqsadida qiroat bilan o'qish orqali yuzaga kelgan.

Xalq musiqasi ijodini o'rganish uchun boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

a) Dastlab o'quvchilarni kichik hajmdagi xalq kuylaridan, milliy cholg'u sozlaridan va bolalar xalq qo'shiqlaridan boshlash kerak.

b) O'zbek xalq kuylarini idrok etish malakalarini shakllantirish uchun milliy cholg'u sozida jonli ijro, cholg'u sozlarni rasmi, ijrochilarni rasmi, kuy mazmuniga mos ko'rgazmasi rasmlar va asar mazmuniga mos ko'rgazma bo'lishi lozim.

v) O'quvchilar kuyni to'g'ri idrok etish uchun asar haqida qisqa mazmunli, lo'nda hikoya qilish, so'ngra bolalar bilan taxlil qilish lozim.

g) Asarning mazmuniga mos musiqiy ritmik harakatlar, tarbiyaviy – ta'limiy suhbat metodlarini qo'llash, asarga nisbatan ijodiy munosabatni o'stirish lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, har bir sinf uchun musiqiy materiallarni tarbiyaviy – ahloqiy, ma'naviy maqsadlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqasi, kuy – qo'shiqlari o'quvchilarda nafosatli zavq uyg'otish bilan birga ularni ahloqiy tarbiyasiga va insoniy fazilatlarini yanada chuqurroq xis etishni o'rgatadi.

Har bir xalqning o'ziga xos musiqasi bo'lib, unda milliy musiqa san'atining eng yorqin namunalari o'z aksini topgan bo'ladi. Milliy tarbiya musiqiy idrokning bitmas – tuganmas manbaidir, chunki u turlicha, bevosita inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir.

Mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy ahloqiy tomondan tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Milliy musiqa inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan qo'shiqlar o'rgatish musiqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir. Har bir xalq musiqasi milliy an'analar, urfodatlar, odob – ahloq qoidalari, tarixiy voqyealarni aks ettiradi. Umumiy ta'lim maktablarida xalq musiqa ijodini o'rganishni ahamiyati katta. Chunki xalq musiqa ijodi professional (kasbiy) musiqaning asosidir.

Musiqa madaniyati darslarida boshlang'ich sinflardan boshlab, yettinchi sinfgacha DTS dasturi asosida o'zbek xalq musiqa ijodi o'rgatiladi. DTS dasturiga kiritilgan kuy va qo'shiqlar o'quvchilar yoshi qiziqishiga mosdir. O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari, cholg'u sozlari, bastakorlarni ijodi haqidagi bilimlarni yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Musiqiy ta'limni milliy asosini tarkib toptirishda fortepiano bilan birgalikda xalq cholg'u asboblardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. IV sinfdan boshlab o'quvchilar musiqa madaniyati darslarida xalq musiqa ijodini asosiy xususiyatlarini o'rgana boshlaydilar. IV sinfdan o'quvchilari hayotiy tajribalarga ko'ra fanlarga qiziquvchan, o'zlari sevgan mashg'ulotlari bilan to'garaklarga qatnaydigan, dunyoqarashlaritarkib topayotgan davri bo'ladi. Shunga muvofiq o'rganilayotgan asari ham janr, xajm va badiiy jihatdan ularning yoshga, ovoz diapazoniga mos bo'lishi kerak. Har bir o'qituvch dars mazmunini milliy musiqamizdan unumli foydalanib, musiqa madaniyati darslarini mazmunli tashkil etishi lozim. Bunda ayniqsa vokal – xor mashqlari sifatida xalq kuy va qo'shiqlaridan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglarini bola hissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Ilova № 5 Olmacha anor.

---

---

---

---

Ilova № 6 Oftob chiqdi olamga.

---

---

---

---

Ilova № 7 Xey lola.

---

---

---

O'zbek xalq qo'shiqlari oddiy kichik xajimdagi qo'shiqlardan boshlab asta – sekin murakkablashib boradi. Bunga misol qilib «Chamanda gul», «Boychechakk», «Lola», «Choriy chambar», «Yomg'ir yog'aloq», «Yalama yorim» kabi qo'shiqlar misol bo'la oladi.

Ilova № 8 Chamanda gul.

---

---

---

Ilova № 9 «Lola» O'zbek xalq qo'shig'i

---

---

---

Ilova № 10 «Yomg'ir yog'aloq» O'zbek xalq kuyi

---

---

---

Bu qo'shiqlar bolalarda ma'naviy poklik, tabiatga muhabbat, kattalarga hurmat, odob – ahloq tarbiyasini shakllantiradi. Yana bunga misol qilib «yaxshi bola» N.Norxo'jayev «Dono bola», «Biz askarmiz», «Oy vatanim» Sh.Yormatov «Gul tutaman onajon» Ye.Shvars «Ikki qo'ymang o'qituvchim» Sh. Yormatov musiqasi kabi asarlar o'quvchilarni axloqiy – estetik tomondan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilova № 11 «Yaxshi bola» N.Norxo'jayev musiqasi P.Mumin she'ri.

---

---

---

Musiqaning tinglash uchun asarlar ham oddiy kichik hajmdagi asarlardan boshlab, keyin asta – sekin murakkablashib boradi. M: «Do'loncha», «Dutor bayoti», «Andijon polkasi», «Lola raqsi», «Qari navo» «Farg'onacha», «Sharob – I», «Navro'zi ajam», «Munojat» shular jumlasidandir.

Ilova № 12. «Dutor bayoti» O'zbek xalq kuyi.

---

---

---

---

Ilova № 13. «Farg'onacha» O'zbek xalq kuyi.

---

---

---

---

Ilova № 14. «Navro'zi ajam»

---

---

---

---

Mazmunli quvnoq musiqalarni o'quvchilar zavq bilan tinlab, musiqa va raqslarni berilib ijro etadilar, bu ularda o'zbek xalq kuy qo'shiqlariga qiziqishni uyg'otadi, mehrini qozonadi, axloqiy tarbiyani. Shakllantirish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham musiqa bolalarni ma'naviy, axloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirish uchun ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tinglagan asarlarini idrok etishlari, o'z fikrlari, taassurotlarini bildirishlari uchun ular bilan suhbat (savol - javob) asar taxlili o'tkaziladi. So'ngra asar yana qayta tinglanadi. Iloji bo'lsa musiqa o'qituvchisi oldin asarni o'zi milliy cholg'u sozida (doira, rubob, dutor)da, so'ngra magnit tasmaida (yoki aksi) tinglashni amalga oshrsa, o'quvchilar musiqiy asarni yanada chuqurroq idrok etishlari, qadrlashlariga erishiladi. Tinglangan musiqiy asar turli musiqiy harakatlar yordamida o'quvchilar bajarsalar, yoki imitatsiya qilib dutor, rubob, doira, g'ijjakda ijro etishni ko'rsatsalar, yoki ushbu kuy mazmuniga mos xikoya tuzib, rasmlar chizsalar asarning o'quvchilarga ta'siri, xotiralarida uzoq vaqt saqlanib, musiqadan zavq va madaniy ozuqa olishlari mumkin bo'ladi. Umumiy ta'lim maktablarini har bir sinfida o'rgatish uchun tavsiya etilgan qo'shiq, ashula, kuy asarlarini puxta o'ylab chiqib, o'quvchilarga yetkazish lozim. Bolalarning o'ziga qo'shiq kuylatish, musiqani idrok ettirish, ularda musiqaga moyillikni tarkib topishini amaliy va ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar har bir musiqani diqqat bilan kuylash va tinglash ularda musiqiy tovushlar vositasida, obrazlarni yorqin tasavvur eti shva musiqaga to'g'ri baho berishga o'rgatadi. Musiqa madaniyati darslarida ijro etiladigan asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak. Bolalarning yoshiga



mos tinglanadigan yoki kuylanadigan asar, ularning ichki dunyosiga yaqin bo'lishi, axloqiy odobiga ta'sir etishi kerak. Bolalar quvnoq va qayg'uli musiqali ham, tantavor ko'tarinki rux, hamda hajviy musiqalarni diqqat – e'tibor bilan tinglashlari lozim. Har o'quv yilida tinglanadigan va kuylanadigan musiqiy asarlar, shakl va mazmun jihatdan murakkablashib boradi. Hozirgi musiqa madaniyatini xilma – xil shakllari va axborot vositalari, tarqatma materiallar va noa'naviy uslubdagi darslar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

O'quvchilarni katta musiqa san'ati dunyosiga olib, kirish, ularni o'zbek xalq musiqasini janrlariga juda boyligi, mazmunli, ma'noli ekanligi, musiqadan zavq olish bilan birga axloqiy nafosat tarbiyasini, madaniyatni shaklantirish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri ekanligini anglashimiz lozim.

Hozirgi biz yashayotgan davr tezkor ilmiy – texnika inqilobi asri xalq ijodida ham o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy, madaniy va xo'jalik hayotida yuz berayotgan katta o'zgarishlar yangi insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi, san'at, adabiyot, shu jumladan xalq ijodiy zakovati bo'lgan musiqa san'ati va fani oldiga ham g'oyat muhim vazifalar qo'ydi.

## **1.2. Xalq musiqa ijodini musiqa madaniyati darslariga joriy etish yo'llari**

Xalq musiqa ijodi ham folklorning boshqa turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal formalarga juda ko'p tarixiy faktlarga ega bo'lgan san'at turidir.

Milliy musiqa san'atining eng yorqin koloritlar, nafosati xalqni falsafiy – ijtimoiy tafakkuriga boy, teran fikr va g'oyalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi zamirida har bir millatni o'z boshidan kechirgan voqyealarni, uning baxt uchun kurashlarini yaqqol ko'rish mumkin.

Dono xalqimiz yaratga boy musiqa ulkan ma'naviy boyligimiz bo'lib, u yosh avlodni ahloqiy va g'oyaviy estetik tarbiyasi uchun ham bebaho manba bo'lib hisoblanadi. Chunki, go'dak xalq musiqasini eng nafis va orombaxsh turi – ona allasini beshikda yotganida hali tili chiqmasdanoq idrok eta boshlaydi. Demak xalq musiqasi, san'atning kishi qalbiga eng yaqin turidir. Shuning uchun Respublikamiz umum o'rta ta'lim maktablarining musiqa dasturlarida xalq musiqa ijodiga alohida o'rin berilgan. Xalq musiqa ijodi materiallariga har bir sinfning yillik o'quv materiallari qatoridan o'rin berishni taqozo qiladi.

Chunki xalq musiqa ijodi professional musiqaning asosidir va har bir bastakor xalq musiqasi uslublaridan, undagi nafis ohanglardan o'rinli foydalanganligi natijasidagina badiiy yuksak va ko'p ovozli yangi asar yarata oladi. Buning isboti shuki, barcha millatlar uchun umumiy bo'lgan hozirgi zamon musiqasidagi major va minor ladlari xalq musiqa darslarining yuqori jarajada taraqqiy etishi natijasidagina shakllangan va klassik musiqani maydonga kelishi bilan qaror topgan.

Boshlang'ich sinflarda dasturidagi xalq kuylari va bolalar qo'shiqlaridan tanlab muntazam ravishda o'rganib borish, o'zbek xalq musiqasini idrok etish malakalari asosida qardosh xalqlarmusiqalarini idrok etishni o'rganib borish, o'quvchilarni qo'shiqni musiqiy ohangi va she'rning mazmunini to'g'ri tushunib idrok etishga o'rganish qo'shiq san'atiga xos badiiy suratlardan foydalanish mumkin.

4-7 sinflarda xalq musiqalarining o'rganishda turli pedagogik amallardan tushuntirish, suhbat, hikoya, savol – javob, kichik suhbat, insholar yozish, darslik bilan ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish lozim. Ma'lumki, ayniqsa 6-7 sinf o'quvchilarida informasialarni qabul qilish kuchli bo'lib, ular yangi masalalarning mohiyatini tushunib olishga qiziqadilar. Shuning uchun har bir asarni o'rganishda shu asar egasi hisoblangan millatning musiqa madaniyati, asarning xususiyati, badiiy va g'oyaviy mazmuni haqida o'quvchining qisqa vaqt qiziqarli axboroti katta ahamiyatga molikdir.

Asarni o'rganishda suhbat va savol – javob metodlarini o'quvchilarning asarga nisbatan ijodiy munosabatni kuchaytiradi. Xalq musiqasi – davr oynasi. Binobarin, u o'zi yaratgan davrning mohiyatini usha xalqning musibatini, erk uchun kurash tarixini, baxt – saodat yo'lidagi orzu – istaklarini aks ettiradi. Ya'ni xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egadir.

Xalq mashshoqlari sodda ixcham va teran fikrni xalq doston va g'azallarini badiiy – g'oyaviy hamda poetik ohangiga mos kuylar yaratganlar. Shuning uchun xalq musiqa ijodini adabiyot darslarida o'rganiladigan materiallar bilan bog'lab olib borish, ayniqsa xalq og'zaki badiiy ijodiga keng o'rin berilgan 4-5 sinflarda xalq musiqa ijodini ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, o'qituvchi bu qulay imkoniyatdan unumli foydalanishi zarur. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bir sinf uchun programma materiallaridagi o'zaro uzviy bog'liq maqsadlarini aniq belgilashi va har bir konkret imkoniyatlarni albatta hisobga olish kerak. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar musiqa janrlari uchun xususiyatlari bo'yicha o'z bilim olganliklari sababli 4- sinfda ularga avvalo musiqa san'atining asosiy xususiyatlari uning eng oddiy va ommaviy janr turlari haqida tushuncha berib, xalq musiqasi bilan bastakor yaratgan professional musiqaning farqini, xalq musiqa janri badiiy folklor singari uzoq taraqqiyot tarixiga ega ekanini, sodda ravon, yorqin ohangda, mungli va xushchaqchaq dilrabo usullarda jaranglashini tushuntirish, shuningdek ular bilan atoqli xalq hofizlari to'g'risida savol – javoblar o'tkazish kerak. Demak, 4-sinfda darslarni biroz tezlatish metodlari asosida o'quvchilarning idrokli, muhokama kuchli xos ravishda olib borish kerak. Yuqori

sinflarda xalq musiqa ijodi bir muncha jiddiy tarzda o'rganiladi va uni musiqa tinglash asosiy o'rinli egallaydi.

O'quvchilarga o'rganish mashg'ulotlarini o'zbek xalq musiqasi haqidagi suhbat bilan bog'lash, o'zbek xalq musiqasi turi va janrlariga ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning milliy iftixori ekanligini asarlar davomida mehnat, kura shva ijodda kishilar uchun ilhom manbai bo'lib, kelganligini, turli janrdagi kuy va qo'shiqlarda xalqimiz tarixidagi voqyeallar ma'lum darajada aks etganini, o'quvchilarga tushuntirish g'oyat foydalidir. O'quvchilar o'zbek xalq qo'shiqlarini idrok etishda orttirgan tajribalar asosida, qardosh xalqlarning qo'shiqlaridan namunalar tinglaydilar.

O'quvchilar xalq qo'shiqlarini o'rganish va ularning o'zaro uzviyligi asosda o'zbekcha qo'shiqlardan keyin: turkmancha, azorbayjoncha va boshqa qo'shiqlarni tinglash jarayonida shu xalqning musiqa madaniyati to'g'risida qisqacha ma'lumotlar har tomonlama chuqur idrok etadilar. «Qardosh xalqlarning raqs va kuylari» mavzuida qo'shiq tinglash bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazilsa, o'quvchilarni darsda olgan bilim va taassurotlari kengayadi va mustahkamlandi. Natijada o'quvchilar professional musiqa va xalq musiqasi o'rtasidagi farqni idrok etib muayyan tushunchaga ega bo'ladilar. Yuqori sinflarda xalq musiqa ijodini o'rganishning eng muhim qismi – o'zbek va tojik xalqlari azaldan birodarligining yorqin timsoli bo'lgan «Shashmaqom» va uning atoqli ustozlari domlo Holim Ibodov, Abdulaziz Abdurasulov, akademik Yu.Rajabiyning ijodi bilan tanishuvidir. Bunda «Shashmaqom» uzoq asarlar davomida tojik va o'zbek xalq musiqalari asosida shakllanganligi ular avloddan-avlodga o'tib, takomillashib, xalq klassik musiqasiga aylanganligini tushuntirib, maqomlar turkumlari turkcha va uyg'ur, eron xalqlarida ham mavjud bo'lib, ularning o'xshashlik va umumiylik xususiyatlari g'oyaviy maqsadlardigi mushtaraklar haqida ham to'xtab o'tish lozim.

Barcha xalqlar musiqasining o'zaro yaqinlashuvi, bir – birlarini boyitish maqsadida Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganish uchun o'zbek va tojik musiqa merosi va ijrochilik san'atini chuqur o'rganib, maqomlarni yangi

zamonaviy tarzda o'zbek va tojik shoirlarining she'rlari bilan kuylagani, o'z san'atini boyitish maqsadida sharq mamlakatlariga safarga chiqib, u joylarga milliy musiqa san'atimizni namoyish etib kata obro'ga ega bo'lgani sir emas.

Ma'lumki, hozirgi kunda xalq musiqa ijodi yuqori darajada gullab – yashnamoqda. Xalqimiz mehnatida va ijtimoiy hayotida ijod namunalari aylanadi. Hozir biror musiqa asbob bo'lmagan uylar yoki maktab va internatlar juda kam. Minglab xalq talantlari va professional san'atkorlar darajasida mahorat ko'rsatib yangi – yangi raqs, qo'shiqlari yaratmoqdalar. Demak maktab o'quvchilari maktab va boshqa barcha jamoatchilik joylarida ko'proq xalq musiqa ohanglari muhitida bo'lib, badiiy g'oyaviy jihatdan turlicha xalq musiqalarini o'z istaklari bilan idrok etadilar. Xalq musiqasi o'quvchilarda estetik zavq uyg'otish bilan birga ularning g'oyaviy, emosional kechinmalarini teranlashtiradi, his etishni o'rgatadi. Turli xalqlar musiqasi va ko'p millatli, serqirrali musiqani har tomonlama idrok etish uchun yo'l qo'yadi.

Musiqa fan o'quvchilarni umummilliy iftixor va baynalminal do'stlik ruhida tarbiyalashda ham xalq musiqa ijodi ravnaqining o'sishida ham muhim vrsita bo'lib xizmat qiladi.

«Qo'shiq» so'zini biz XI asrning mashhur fililog olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'at turk» kitobida ham uchratamiz. U qo'shiq koshut so'zining arabcha «She'r»), «Qasida», «Rejiz» deb tarjima qilgan. O'zbek xalq qo'shiqlari tarixini o'rganish «Devonu lug'atit turk» ning uchala jildidagi qo'shiqlar tekshirilsa, bundan ming yil oldin ham qo'shiqlarning rang-barangligini, ularning til, iboralari, vazni pishiq ekanligini ko'ramiz.

Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarlarida ham qadimgi turkiy xalqlar hayotini aks ettiruvchi tarixiy janrlar tasvirlari aks etgan parchalar anchagina. Ular yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ushbu asarda qadimgi dunyo afsonalari, urug' qabilalari haqida rivoyatlar ham uchraydi. Engmuhimi mehnat, marosim, urf-odatlar, mavsum qo'shiqlari dan namunalari berilgan.

Ichki kechilmalar, sevgi qo'shiqlaridan parchalar bor. Ular xalq baliy ijodi: she'riy turtlikoar shaklida barmoq vaznida yaratilgan. Shulardan ayrimlarini misol keltirib tinglaymiz. Ularni akademik Aziz Kasamoq hozirgi zamonaviy kishilarni tushinchasiga moslashtirgan.

### **Ov qo'shiqlari**

Toyni minib sakratsin  
Ov qilinib uynatsin  
Itga kiyik qayratsin  
Ot gushtlarin yeyaylik  
Uchsiz ulka, o'rdak otsam kul tamondan.  
Suvga botar qashg'aldoqlar o'sha onda

### **Qahramonlik qo'shiqlari**

Qo'rqma yovdan qarshi chiqgil, tika borgin  
Botirlarin qog'ozdek yirtib itkit o'rgin  
Yarqiratib qilichingni  
Majaqla, bos, qalqoningni bo'yningga il  
Alp yigitlar olishtilar  
Qing'ir ko'zla boqishdilar  
O'q-nayzalar suqishdilar  
Qilich qinga, arang sig'di.

Keltirilgan misollar qadimgi davr folklorida turkiy xalqlar nazmi, musiqaning yetakchi janri qo'shiqning turli mavzularida mazmunli, har-xil shakl, turlari paydo bo'lganidan dalolat beradi.

«Devonu lug'atit turk» asarida qo'shiqning keyinroq paydo bo'lgan ular, lapar janrlariga asosli shakllari-munozara aytishuvlarga am misollar bor.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, hamma sohalarda rivojlanish sari yangi – yangi va salmoqli ishlar qilina boshlandi. Musiqiy meroslarimizning uzoq o'tmishini yanada chuqurroq o'rganish sohasida ham

unumli ishlar amalga oshirildi. Xususan musiqiy san'atimiz tarixini, uning buyuk nomoyondalar tarixini har tomonlama o'rganish va xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Qullik va mute'lik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota – bobolarimiz udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lishdan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda» degan so'zlariga asoslanib musiqiy tariximiz, uning ustazoda ijro xofizlari va ular qoldirib ketgan o'lmas merosini tiklab, uni rivojlantirish davom ettirish vaqti kelganligini ta'kidlash lozim.

Bu kabi faqt va fikrlarni aytishdan maqsad necha asrlar osha yashab kelayotgan an'anaviy qo'shiq ijrochilarining zer – zabarlari haqida biz tinglovchilarga qisqacha bo'lsada ma'lumot berishdir.

Chunki muayyan sabablarga ko'ra shu vaqtgacha bo' haqida jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Bos shunday yuqorida aytganimizdek Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» kitobida qo'shiqning qiyinroq paydo bo'lganini, uning lapar janrlariga asosli shakllari – munozara aytishuvlarga misol borligi kuyidagicha:

### **Bayonchi: Qish yoz bilan tortishuv**

Qish: Er ot menda ortishur,

Kasalliklar qaytishur

Kuch – quvvatga to'lalar

Senda barcha yomonlar

Chivin, pasha, ilonlar

Dumi gajak chayonlar

Hamla qilib yugurishur

Senda qocha sundulog

Menda tinar qaldirg'och

Bulbul bo'lib, nag'masoz

Erkak ayol juftlashur

Bu qo'shiqlarning musiqiy ifodasi bizning davrga qadar yetib kelmagan. Ular faqat she'r ohangi darajasida bo'lgan yoki tugal, mukammal darajaga yetganligi noma'lum. Bu haqda biror fikr aytish qiyin. qo'shiqning poetik asosini tugallangan aniq shakldagi bir band yoki to'rt misrga tayangan kuy bo'lsa kerak deb taxmin qilish mumkin. Teatr va raqs san'atlari bilan mujassamlikda ijro etilgan.

O'zbek xalq musiqa va og'zaki poetik ijodi keng qadimiy sermazmun va sermazmun ko'rinishga egadir.

Adabiyotshunoslikda mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrli badiiy ifodalar, orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunalariga qo'shiq deyiladi.

Musiqa to'rtliklaridan iborat she'rlarning ba'zan bir, aksar hollarda ikki, qo'shimcha to'rt satrdan iborat band va uni umumlashtiruvchi naqorat so'zlari, satrlarning qamrab olgan ixcham shakllari kuyga ega, ovoz bilan ijro etiladigan musiqiy va so'z birligiga ham qo'shiq deyiladi.

Bu janr turkiy va turkiy tilda kuylovchi el – elatlar hamda xalqlarning turmush tarzida ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, milliy xususiyatlari shakllanmasdan avval paydo bo'lgan. Shuning uchun qo'shiq atamasini turkiy tilda so'zlovchi ko'pchilik xalqlar tilida uchratish mumkin.

**Masalan:** «Qo'shiq» o'zbek tilida, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tilida «Kushyk» deyiladi. Qo'shiq atamasi xalq tushunchasida so'zga – so'z, fikrga-fikr qo'shish ma'nosidan kelib chiqqan deb taxmin qilish mumkin. Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asarida «Qo'shiq» shaklida uchraydi. Bu so'zning izohi yuqorida ta'kidlanganidek she'r qasida deb ko'rsatilgan.

Ertaklarning badiiy kuchi – ularning xalq orzu umidlari va murmush xaqiqatlari bilan uyg'unligida, kishilarning ruhi, psixologiyasini o'zida aks ettirishida, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo'lishidadir. Mashhur rus folkloristlari aka – uka Sokolovlar, G.S.Vinogradov va O.M. Natisalar, bolalarga aytiladigan ertaklarga alohida ahamiyat berdilar. Ularning fikricha, bolalar ertaklari alohida janr sifatida balalar folkloridan joy oladi, ularni



to'g'ri to'plash, o'rganish kerak. Negaki, balalar folklorining biror turi bolalar ruhiyatiga erkaklar singari chuqur ta'sir qila olmayda.

Shuning o'zi ham tadqiqotchilarning diqqat – e'tiborini ertakka qaratish kerakligidan dalolat beradi. Faqat tadqiqotchilar emas, barcha bolalar bilan ishlaydigan ishlar-pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota – onalar, bolalar ertaklarini bilishlari, bola tarbiyasida ertaklarning sehrliligidan foydalanishlari zarur. G.S.Vinogradov ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati haqida shunday yozgan edi: «ertakchilik qadimdan bor. uning formalari juda puxta ishlangan, u hozirgi vaqtgacha xalq pedagogikasi tomonidan muvaffaqiyat bilan foydalanib kelingan edi. Keyingi vaqtda esa milliy pedagogika ham o'tdi».

Ertaklar bolalarga, hali ular «katta» adabiyotni o'qish darajasiga yetmagan chog'laridayoq juda maroqli, xotirada qoladigan, obrazli formalarda axloq asoslarini o'rgatadilar. Darxaqiqat. kichik cho'pchaklardan to ko'p jiddiy dostonlarga qadar, yuzlab syujitlar orqali bola ongiga yetib boradilar. ta'lim – tarbiya ishlarida yaqindan yordam beradilar.

Hozirgi kunda badiiy so'z kuchining ahamiyati, hayotidagi o'rni ham juda katta. Pedagoglar xalq og'zaki ijodiyotidan, jumladan, bolalar ertaklaridan o'z tarbiyaviy va ijodiy namunalarida keng foydalaniladilar.

O'zbek xalqi orasida «ertak» so'zining lug'aviy ma'nosi –aytish, aytmoq, hikoya qilmoq ma'nolarini bildiradi. XI asarda yozilgan M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida «ertak» - «etuk» formasida ishlatilgan. Keyingi nashr qilingan deyarli hamma lug'atlarda asosan «erkak» so'zi yozilib keladi. Shu sababdan, o'zbek adabiy tilida ham shu termin qabul qilishgan. Ammo hozirgi kunlarda ham Samarqand Surxandaryo viloyatlarining ayrim rayonlarida «Matal» ham deyiladi. Buxoro viloyatining ba'zi qishloqlarida ertakni – «shuk» yoki «ushuk» nomi bilan ataydilar. Ba'zan shu joylarda «maial»ni ham «ushuk»ni ham topishmoq manosida uchratish mumkin. O'zbek xalqi orasida ertak, cho'pchak terminlaridan boshqa yana hikoya, afsona, utirik kabi terminlar ham uchraydi.

Xalq ertaklari deganda og'zaki hikoya tarzidagi, afsonaviy, sarguzasht yoki maishiy, uydirmaga asoslangan, tarbiyaviy yoki ovutish maqsadlarida aytiladigan

og'zaki hikoya asarlar tushuniladi. Xudi ala shu tarbiyaviy yoki bolalarni ovutish maqsadlarida aytiladigan ertaklarni bolalar ertaklari deb atasa bo'ladi. Folklorshunos A.I.Nikiforov bunday ertaklarni maxsus bolalarga aytiladigan ertaklar – taqlidiy ertaklar deb atadi. Ular o'zbek ertakchiligida ikki xil formada ko'proq uchraydi:

## **II.bob «TOSHKENT FARG'ON MAXALLIY USLUBLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI VA ULARNI MUSIQA DARSLARIGA JORIY ETISH MUAMMOLARI»**

### **2.1.«Farg'ona – Toshkent musiqa uslubini o'ziga xos yo'llari».**

Mustaqil O'zbekistonimizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy – axloqiy tomondan tarbiyalashdan boshlanadi. Hozirgi musiqiy ta'lim tarbiya ishlari shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o'rganishda, musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa madaniy xayotimizda keng o'rin to'tgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi guzal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Ma'lumki musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa insonhissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirib, axloqiy va g'oyaviy tarbiyalaydi. O'zbek xalq musiqasi juda qadimiydir. Tarixiy ma'lumotlardagi adabiyotlar va arxeologik qazilmalardan topilayotgan qadimgi musiqa madaniyatimizga oid ashyolar buning dalilidir. Har bir milliy musiqaning asosi xalq musiqasidir. Xalq musiqasi turli mehnat sharoitlaridan, tarixiy voqyealarda yaratilib, uzoq yillar davomida sayqallanib, avloddan – avlodga o'tib keladi. Xar bir xalqning o'ziga xos musiqasi bo'lib. Unda milliy musiqa san'atining eng yorqin namunalari o'z aksini topgan bo'ladi. Xalq musiqasi zamirida har bir millatning tarixiy voqyealar baxt va farovon xayot uchun kurashlari kuy qo'shiqlar vositasida kuylanadi.

O'zbek musiqasi iborasi keng mazmunli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga milliy musiqamizni ikki asosiy qatlamini – xalq musiqasi va ustoz san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqa sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, o'zbek musiqasi mazmunida 4 ta maxalliy uslublar ham tushuniladi. Bular:

1. Qashqadaryo – Surhandaryo
2. Buxoro – Samarqand

### 3. Xorazm

### 4. Farg'ona – Toshkent musiqa uslublaridir.

Har bir maxalliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'analarga ega. Bu an'analar esa, uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, xar bir xalqning turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, marosimlari, bayramlari, urf – odatlari bilan o'z xususiyatlariga ega.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi – Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati xududlari qaror topgan, musiqiy an'analarni o'z ichiga oladi. Bunda xalq musiqasiga oid katta ashula, lapar, yalla, qo'shiq, dostonchilik, maqomchilik o'zbek xalq cholg'u asboblari, bolalar folklori, bastakorlik kabi an'analarni o'z ichiga oladi. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida katta ashula odatda ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlarda ijro etib kelingan. Bu janrdagi ashulani bir radio, telvideniya orqali hamda konsert va sayllarda ko'p eshitganmiz. Katta ashulaning asosiy qismini avjlar tashkil qiladi. U jursiz va erkin usulda kuylanadi. Uning ijrosi uchun keng hajmli ovoz va yuksak ijrochilik mahorati kerak. Shuning uchun ham u katta ashula deb, nomlanadi. Uni ikki va undan ortiq ashulachilar «likopcha» ushlab ijro etadilar. Bunga sabab kuy usullaridan chertib aytish va ovozni bir tomonga yo'naltirish uchun foydalaniladi. Ba'zan «katta ashula» cholg'u asari sifatida ham chalinadi.

«Katta ashula»da asosan diniy tasavvuf, ishq muhabbat, Vatanga sadoqat insonparvarlik, mexr, vafo, pandu – nasihat, ahloq odob, mehnatsevarlik, tabiat go'zalligi mavzulari kuylanadi. Bunga misol qilib, «Yovvoyi Chorgh», «Yovvoyiy ushshoq», «Kirib bo'stonni kezdim», «Mehnat ahli», «Xormanglar», «Ey dilbarim jonim», «Qoyilman» kabi katta ashulalar misol bo'la oladi.

---

---

---

---

---

Meh-nat ah-li qil-di-o-bod, far-xod

«Katta ashulani» O'zbekiston xalq xofizlari Orifjon Alimaxsumov, Ma'murjon Uzoqov, To'xtasin Jalilov, Rasulqori Madaminov, Jo'raxon Sultonov, Nabijon Xasanovlar ijro etadilar.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli bo'lib yallachilik san'ati keng rivojlangan. Yalla bu band – naqorat shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Yakka xoldagi yallachi odatda o'z aytimlariga duto ryoki doira sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambli odatda 2-3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doira jo'rligida kuylaydilar. Yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar yalla va tuy marosimi aytimlaridan tuzilgan bo'ladi. Bizga ma'lumki, bu janr quvnoq aytimlardan tuzilib, raqsona ohangda kuylab aytiladi. Odatda, cholg'u asboblari va xonandalar jamoasi jo'rligida raqsga tushib kuylanadi. Masalan: Qizgina, «Yali - yali», «Ishga chiqing kelin oyi», «Yolvorma jonim»

---

---

---

---

Ey so-hibi so-zan da (ho)

---

---

---

---

Kel-so-zing-ni qo'l-ga ol.

Yallachilik san'atining mohir ijrochilari Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Gulshod Otabekova, Raxima Mazaxidova, Xadixon Xamdamiyeva, Namanganda Saltanatxon Aliyeva, Qolisxon Qirg'izboyevalardir.

Allo – onaning murg'ak bolasiga bo'lgan mexr – muxabbati va orzu istaklarini ifodalaydigan qo'shiq. U mayin orombaxsh yoqimli qo'shiq bo'lib, shirin uyquga eltishga xizmat qiladi. Odatda har bir ona bolasiga bo'lgan mehrini allada ifodalaydi. Alla qo'shig'ini tiklagan farzand sog'lom, tetik bo'lib voyaga yetadi.

---

---

---

---

Lapar – sho'x va raqsona kuy va qo'shiq usulida bo'lib, odatda ikki xonanda yoki yakkaxon va ko'pchilik xonanda tomonidan ijro etiladi. Laparlar odatda

aytishuv tarzida kuylanadi. Tinglovchilar zavqqa to'lib, chapak chalib unga jo'r bo'ladilar. Bunga xalqimizning «Omon yor», «Ililla yor», «Olmacha anor», «Qora soch», «Jaxu - jahu», «Oyijon», «Qilpillama», «O'lan», «Qora soch» kabi qo'shiqlar kiradi.

---

---

---

---

### Hay-xay o' -lan jon-o'lano to'y-dir-bu-gun

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori o'z qo'shiqlari, o'yinlari bilan mashg'urdir. Bunga «boychechak», «Yomg'ir yog'aloq», «Laylak keldi», «Oftob chiqdi», «Chuchvara qaypaydi», «Sust xotin», «Chitti gul», «Chamanda gul» kabi qo'shiqlar butun diyorumiz bo'ylab ijro etib keliniyapti

Ilova №1

---

---

---

---

### Sust xo –tin suz-ma xotin ko' -lan-ksi may-don xo tin.

Xotin qizlar davrasida lapar, yalla, to'y marosimlari qo'shiqlari bo'lgan «Kelin salom», «Yor-yor» kabi asarlar ayollar tomonidan zo'r mahorat bilan kuylanadi. Unda 3-4ijrochi naqoratni, yakkaxon ijrochi esa bandlarni kuylaydi.

---

---

---

---

Farg'ona – Toshkent musiqa amaliyotida sozandachilik san'ati keng rivojlangan.

Musiqa amaliyoti deyarli barcha xolqlar cholg'ularini: dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'sh nay, sato, g'ijjak, karnay, surnay, doira nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab yakka va ansambl shaklida namoyon bo'ladi. Xalqimizning madaniy xayotida xar bir milliy cholg'uning o'z o'rni va vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari mavjud. Masalan: duto rva doira yakka va jo'rnavoz sifatida ham foydalaniladi. Ammo tanbur, sato, nay, qo'sh nay, g'ijjak, chang, singari sozlar asosan kasbiy (professional) musiqachilar cholg'usi hisoblanadi, ya'ni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan musiqachilar bo'lishi kerak. Bu vohada raqs

kuylari ham mashxurdir. Bulardan «dilxroj», «Tanovor», «Andijon polkasi», «Katta o'yin» raqs kuylarini aytib o'tish mumkin.

Ilova № 2 «Dilxiroj»

---

---

---

---

«Tanovor»

---

---

---

---

«Andijon polkasi»

---

---

---

---

Farg'ona – Toshkent maxalliy uslubida raqs kuylari juda mashxur bo'lib bu kuylar xalq ommasi tomonidan ham sevib tinglanadi. Masalan: «Sarbozcha» kuyi shular jumlasidandir. «Sarbozcha» - forscha – tojikcha so'z bo'lib bosh o'yinchi degan ma'noni anglatadi. Sarbozlar Turkiston xonliklaridagi xarbiy qismlarning askarlari bo'lib xisoblanganlar. Sorboz so'zi askar so'zi o'rnida ishlatilgan. Bu kuy xarbiylarning jangovor ruhini, dadil qadam tashlashini ifoda etadi.

Ilova № 3

---

---

---

---

Farg'ona – Toshkent vodiysi bo'ylab keng tarqalgan maqom yo'llariga nisbatan, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari iborasi qo'llaniladi.

Bu maqomlar Buxoro shashmaqomidagi va xorazm maqomlaridan kuy qo'shiqlardan farq etib, bir turkumni tashkil etmaydi. Balki, aloxida – alohida cholg'u, kuy va ashula yo'llaridan tashkil topadi. Xususan, nasrullo I-V, Munojat I-V, ajam va Taronalar, segoh I – III, cho'li Chiroq, miskip, kabi cholg'u kuylari, Chorgoh I-V, Segoh Bayoni Sheroziy I-V, Gulyor Shaxnoz I-V, Toshkent Irog'i kabi ashula yo'llari Frg'ona – Toshkent maqom yo'llariga mansubdir.

Ilova № 4

---

---

---

---

---

Yuqoridagi maqomlarning cholg'u yo'lida yakka soz dutor, g'ijjakda yoki tanbur dutor nayda – g'ijjak doira cholg'ularidan iborat ansambl shaklida ijro etiladi.

---

---

---

---

Ashulla yo'llarida esa ashulachi xofizlari tomonidan tanbur yoki cholg'ular ansambli jo'rligida aytiladi. Ushbu maqomlarda Navoiy, Sakkoniy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, va boshqa shoirlarning she'rlari asosida kuylanadi.

Ilova № 5

---

---

---

---

#### Dash-ti-ni gul-bog'lpr Gulis-ton

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubini yirik namoyondalari Tuxtasin Jalilov, Muxammadjon Mirzayev,3 Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Tashmatov, Usta Olim Komilov, Komijon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Doni Zokirovlar bu uslubni rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar.

Musiqa madaniyati darslarida Farg'ona – Toshkent maxaliy uslublarini joriy etilishi. Bugungi kunda – milliy qadriyatlarimizni tiklanish jarayoni ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni an'alarimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Xalqimizni bebxo mulki bo'lgan, milliy kuy – qo'shiqlarimiz xozirgi vaqtda yosh avlodni ahloqiy estetik tarbiyalashda muhim vosita sifatida alohida ahamiyatga ega. Xalq musiqa ijodida maxaliy uslublar – musiqa madaniyati tarixi bilan, bir necha asrlardan buyon ishlab kelayotgan mehnat, marosim, epik, yalla, lapar, katta ashula, mavsum qo'shiqlari (Navruz, xosil bayrami), lirik asarlar va qo'shiqchilik san'atini rivojlanishiga xissa qo'shgan ustozbastakorlar ijodini o'z ichiga oladi. Eng muhim ichki kechinmalar bu asarlarda yaqqol o'z aksini topgan. Maktab o'quvchilarini ahloqiy – estetik tarbiyalashda xalq musiqa ijodini va maxalliy uslublarni ahamiyati katta. Xozirgi



kunda barcha umumta'lim maktablarida yosh avlodni ahloqiy estetik tarbiyalash, ta'lim – tarbiya jarayonini asosiy masalalaridan biri deb qaralmoqda. Musiqa san'atidagi bu kabi imkoniyatlar o'quvchilarni barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Xalqimizni bebaxo ma'naviy mulki bo'lgan milliy kuy – qo'shiqlarimiz nafaqat so'z va ohang boyligi bilan, balki o'zbek xalqimizni o'ziga xos turmush tarzlarida milliy cholg'u sozlari, milliy qadriyatlari madaniy udumlari bilan diqqatga sazovor. Maxalliy uslublar turli mehnat sharoitida, tarixiy voqyealarda, xushchaqchaq o'yin kulgi yoki musibatlarda yaratilib, uzoq yillar davomida sayqallanib avloddan – avlodga, og'izdan – og'izga o'tib saqlanib keladi. Bunda milliy musiqa san'atimizning eng yorqin namunalari nafosati, falsafiy tafaakurga boy teran fikr va g'oyalar o'z aksini topgan. Maxaliy uslublar zamarida har bir millitning o'z boshidan kechirgan tarixiy voqialarini, uning erk va baxt, farovon xayot uchun kurashlarini yaqqol ko'rish mumkin. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning qiziqtiradigan, o'ziga jalb etidigan, zavqlantiradigan qo'shiqlar o'rgatish musiqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir. Musiqiy ta'limni milliy asosini tarkib toptirishda fortepiano bilan birgalikda xalq cholg'u asboblaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga Farg'ona – Toshkent musiqiy uslublarini, undagi kuy va qo'shiqlar, terma va laparlar, bolalar folkloriga oid qo'shiqlar o'rgatish o'quvchilarda nafosat xissiyotlarini har tomonlama shaklantirashda va oliy janob fazilatlarini kamol toptirishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning xos tuyg'ularini va orzu istaklarini baliy tilda ifoda etadi.

Mashhur kompozitor va pedagog D.B.Kabalevskiy aytganidek: «Bolalarni san'atga, musiqaga o'rgatish ham murakkab vazifa hamma murakkabligi shundaki, ularning ichki kechinmalarigata'sir etmay turib, haqiqiy san'atni o'rgatish aslo mumkin emas». Har bir o'quvchining qobiliyati va qiziqishini hisobga olib, ishtiyoqi va o'qishiga qarab musiqiy asarlar, qo'shiqlar o'rgatish mahsadga muvofiqdir. Ma'lumki 7 – sinfda o'quvchilarda ovoz shakllari notekis bo'ladi. Chunki bu yoshda mutasiya davri boshlanadi. Bu vaqtda musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga alohida e'tibor bilan qarashi, extiyotkorlik bilan, meyr bilan

muomala hilmog'i kerak. Layog'atli qobiliyati to'liq rivojlanmagan bolalar bilan alohida suxbat o'tkazish kerak. Ovozni zo'riqtirmasdan, qulay bo'lgan mashqlar va qo'shiqlarin tanlab, ovozlarga bo'lib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni har bir musiqa asarini diqqat – e'tibor bilan tinglab ulardagi musiqiy tovushlar vositasida gavdalantirilgan badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etish hamda ularni to'g'ri badiiy baxo bera olishga o'rgatib borish zarur.

O'quvchilarning musiqiy taasurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyati turida o'quvchilar musiqa o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitafon yordamida eng nodir musiqa asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning man'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zaligini, voqyelik va xatti – harakatlaridagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy oxangdagi rang – barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq his etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rmashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa asar musiqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida ikki – uch marta eshittirish, har gol kuyning yangi – yangi dinamik qirralarini o'quvchilarga tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlar – marsh, ko'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar.

Darsning har uch asosiy qismi alohida – alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir – biri bilan uzviy bog'liq holda darsning mazmuni bir butun bulishini ta'minlash lozim.

## **2.2. Maktab musiqa darslarida Toshkent–Farg’ona musiqiy mahalliy uslublarini joriy etish yo’llari.**

O’quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o’zaro uyg’un kuylashini mustahkamlashda ba’zan ularni «sinf sahnasi»ga chiqarib kuylatish yaxshi samara beradi. Qo’shiq tugal o’rganib bo’lingach haftada yoki chorak oxirida o’quvchilar «sinf konserti» beriladi. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasidan o’z o’rnini topib turish, kuylaganda bir – birlarini his qilish va o’z joyiga borib o’tirish kabi sahna madaniyatiga qat’iy amal qila borish o’quvchilarning o’zaro munosabatlariga va hulqiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. «Sahnada» kuylash o’quvchilarning qo’shiqni qay darajada o’rganib olganligini aniqlash asarning ayrim jumllarini «pishitib» olish va qo’shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkonini beradi. «sinf konserti» o’quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg’ulotga aylanadi. Bu amaliyot o’quvchilarning musiqa darslariga qiziqtirishning muhim usuli xisoblanadi.

Darsni sifatli va samarali olib borish uchun ko’rgazmali qurollardan, turli texnikaviy vositalardan keng foydalanish muqim rol o’ynaydi. Darsdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarda faol ishtirok etishga o’quvchilarni muntazam ravishda tayyorlab borish lozim. Xor, ansambl, yakkaxonlik tugaraklari o’quvchilarda musiqa bo’lgan havas va ishtiyoqini oshiribgina qolmay, maktabda tashkil qilinadigan erkaklar, kechalar, tabiat bag’riga saytrlar, ekskursiyalar va boshqa turli bayram, tantana va tadbirlarning qiziqarli o’tishida ham muhim rol o’ynaydi. Bunday tadbirlar o’quvchilar xotirasida uzoq yillar saqlanib qoladi. O’quvchilarni musiqa vositasida estetik tarbiyalashda maktab bilan oila xamkorligiga alohida e’tibor berish, ota – onalar bilan bemaslahat ish olib borish maqsadga muvofiqlidir. Boshlang’ich sinflarda hosil bo’lgan bilim va malakalarga tayangan holda II – III sinflar musiqa darslari oldiga yangi vazifalar qo’yiladi. Bunda musiqa san’atiga ijtimoiy ong shakli sifatida qaraladi va shu boshdan o’quvchilar shaxsiyatini shakllantirishda u qudratli vosita ekanligi e’tirof etiladi. Zero, musiqa kishilar hayotini, ularning xis – tuyg’ularini va orzu –

istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishi hissiyotlariga faol ta'sir etadi. Bir so'z bilan aytganda, musiqa san'ati hayotni o'rganadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu boisdan musiqa, o'quvchilarda estetik hissiyotlarni tarbiyalash orqali ularning ma'naviy, g'oyaviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda olijanob fazilatlarni kamol toptirishda ta'sirchan. Musiqaning bu fazilatlaridan har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, hayotiy tajribalari, musiqiy bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda kichik bolalar tafakkuriga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan kichik qo'shiqlar, kuy va pyesalar berilgan. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari boytgan, konkret fonlarni o'rganish jarayonida ilmiy – materialistik dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, xajmi va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib boradi. Bunda musiqa ta'limining milliy asosi muhim rol o'ynaydi. Garchi dasturda o'zbek halq musiqasi, og'zaki an'anadagi o'zbek musiqasi ma'lum tartibda berilgan bo'lsa – da shunga qaramay, boy musiqa madaniyatimizning hisobga olgan holda har bir o'qituvchi dars mazmunida milliy musiqa boyligimizdan unumli foydalanib borishi tavsiya etiladi. Bunda ayniqsa vokal – xor mashqlari sifatida xalq kuy va qo'shiqlardan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari hususiyatlarini bolalar xissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Xalq musiqa ohanglari, lad va ritm – usullari hissiyotlari asosida o'zbek kampozitorlari ijodini o'rganish va shu orqali jahon musiqa boyligi namunalarini idora etishga o'rgatish tabiiy bir hol deb e'tirof etilish lozim. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida uzluksiz amalga oshirib borishi lozim. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda fortepiana bilan bigalikda xalq cholg'u asboblariidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa doira chertib kuylash, ritmik xarakterlar va raqs elementlarini bajarish, musiqiy ijodkorlik bilan shug'ullanish o'quvchilarning musiqiy hamda jismoniy rivojlanishi uchun har jihatdan ijobiy foyda beradi. Shuning uchun o'qituvchi xalq musiqa merosimizni va ayniqsa, zamonaviy xalq musiqa ijodini muntazam o'rganib borishi shart. Ma'lumki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi

o'quvchilarning musiqaviy madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

Musiqaviy qobiliyatlarni tarbiyasi. Bunda o'quvchilarning musiqa o'quvi, ritm tuyg'usi, musiqa xotirasi, melodik va garmonik o'quvi, tembr o'quvi kabi muhim qobiliyatlarini rivojlantirish va shuning vositasida ularda vokal – xor hamda musiqa idroki malakalarini shakllantirish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirishda har bir o'quvchini alohida o'rganish, undagi musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va sinfning imkoniyatlarini aniq hisobga olgan holda repertuar tanlash, turli pedagogik usullardan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar qo'shiqlarini o'rganib, turli musiqiy asarlarni tinglab, musiqa vositasida badiiy tarbiya ham olishadi. So'z bilan ifoda etolmagan maqsadlarga musiqa orqali erishish ijobiy natijalar beradi. Chunki, qo'shiq kuylaganda, musiqa tinglaganda o'quvchilarga asar mazmunini butun vujudlari, xis – tuyg'ulari, ruxiy kechinmalari orqali his etadilar. Shuning uchun musiqa insonga tez va faol ta'sir etadi.

Musiqa madaniyati darslari yosh avlodni ko'p asrlik musiqa an'alarini o'rganishga, milliy qadriyatlarimizni egallashga, ulardan bahra olishga har bir maxalliy uslubni alohida o'rganish imkonini beradi. Har bir xududning tarixi bilan, cholg'u sozlari maqomlari, qo'shiqchilik san'ati, sozandachilik san'ati, mehnat, marosim qo'shiqlari bilan tanishishga yaqindan ko'mak beradi. Musiqa an'alarining tarixi qadimgi davrlarga taaluqli bo'lib, ular turli vaziyatlarga, yuzaga kelgan.

Men pedagogik amaliyot davrida o'tkazgan namunaviy bir soatlik darsimni e'tiboringizga havola etmoqchiman.

Darsning mavzusi:

«Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi haqida ma'lumot»

I. Qo'shiq «Ey nozanin» O'zbek xalq kuyi Muqimiy g'azali

II. Musiqa savodi Ton va yarim ton haqida ma'lumot.

III. Musiqa tinglash «Farg'onacha» O'zbek xalq kuyi.

Dars maqsadi:

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida marosim, ommaviy tantanalari va uning turlari haqida ma'lumot. «Ey nozanin» (o'zbek xalq kuyi) I kupletini o'rganish, «Farg'onacha» o'zbek xalq kuyini tinglash.

Darsni jihozlash:

Musiqa cholg'u asbobi (pianino) rubob, dutor, reja konspekt qo'shiq mazmuniga mos rasm bolalar cholg'u asboblari, magnit tasmasi, plakatlar.

Darsni borishi:

Davomatni aniqlab, o'quvchilardan oldingi darsda o'tilgan mavzuni tekshiraman.

Yangi Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi, marosimlari va ommaviy tantanalari, urf – odatlari haqida batafsil so'zlab beraman. So'ngra kuylash xolatini eslatib, o'quvchilarni ovazlarini sozlayman.

1. talaffuz uchun mashq

---

---

---

---

2. nafasni to'g'ri olish uchun mashq

---

---

---

---

O'quvchilarni Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi bilan yaqindan tanishtirib, musiqiy janrlari, milliy qadriyatlari haqida ma'lumot beraman. Bu xudud «katta ashula», «Bolalar folklori», «Dostonchilik», «Yallachilik», «Sozandachilik» kabi musiqiy janrlari bilan butun dunyoga mashhur. Bugun biz sizlar bilan Farg'ona – Toshkent maxalliy uslubiga mansub mumtoz asar «Ey nozanin» qo'shig'ini o'rganamiz. Bu asarda insonlarni bir – biriga mehr – muhabbati, ibo, xayo, ichki kechinmalari va insoniylik mehr – muhabbati haqida kuylanadi.

Ilova № 6

---

---

---

---

ey no-za-nin ish-qing

---

---

---

---

---

### Bi-lan de-vo na-man-o

Yangi qo'shiq jumalarga bo'lib o'rgataman. Qo'shiq mazmuniga mos rasm, plakat va ko'rgazmali qurollardan foydalanaman.

#### Ilova № 6

---

---

---

---

---

So'ngra, o'quvchilarga ton va yarim ton haqida ma'lumot beraman. Musiqa cholg'u asboblari masalan rubob, dutor, fortepianoning pardalari yarim toni tashkil etadi. Masalan: yarim ton oralig'i «mi» va «fa», «si» va «do» tovushlarini orasida yuzaga keladi.

Misol:

---

---

---

---

---

Musiqiy misollar orqali kuylab, qo'rgazmali qurollar (plakat) yordamida ifodali qilib tushuntirib beraman.

Endi sizlar bilan o'zbek xalq kuyi «Farg'onacha» kuyini tinglaymiz. Bu kuy serjilo va navoli, jozibador xarakterda yozilgan. Ayniqsa, qochirim va nola kabi o'zbek musiqasiga mos ifoda vositalari tinglovchini o'ziga jalb etadi. Bu kuy to'y bazmlarda, xalq tomoshalari va sayllarida va boshqa ommaviy tantanalarda ijro etiladi.

#### Ilova № 7

---

---

---

---

---

Bu kuy sol major tonligida yozilgan. Juda tez «Allegretto» sur'atida ijro etiladi. Quvnoq, sho'x, raqsona xarakterda. O'zbek xalq cholg'u asboblari jo'rligida ijro etilgan. Uch qismdan iborat. Kuyni magnit tasmasida o'quvchilarga eshittiraman. So'ngra o'quvchilar bilan o'tilgan mavzularni mustaxkamlayman. Savol – javob, og'zaki so'rov o'tkazib, ularni o'tilgan mavzular asosida baholayman. Darsni yakunlab, uyga vazifa berib, o'quvchilar bilan xayrlashaman.

Men maktabda o'tilgan pedagogik amaliyot davrida shuni anglab yetdimki, o'zbek milliy musiqasini o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda, vatanga muhabbat tuyg'ularini o'stirishda o'zbek xalq musiqasining maxalliy uslublarini, xususan «Farg'ona – Toshkent» musiqa uslubini ahamiyati beqiyos ekan.



### **III.bob «MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH»**

#### **3.1. O'rta 7-sinf musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarini tutgan o'rni.**

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida belgilanadi. «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak» deb ta'kidlaydi. I.A.Karimov – «sog'lom kishi deganda faqat jismonan sog'lomgini emas, balki sharqona ahloq odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insoni tushunchamiz. Tarbiya milliy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Zero, millat mavjud ekan, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos usullari, mazmuni va yo'nalishi ham takomillashb, boraveradi». Milliy qadriyatlar tufayli jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar eng avvalo ma'naviy hayotda ko'zga tashlanmoqda. Yosh avlodda iymon vijdon, poklik, xalollik, mehnatsevarlik, ishbilarm onlik, kabi xislatlarni tarbiyalash, ta'lim – tarbiya sohasida milliy qadriyatlardan foydalanish samarali natija berishi shubhasiz. Aqlan yetuk, ahloqan pok va jismonan baquvvat milliy ma'suliyat tuyg'usini angelaydigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishi, mamlakatning mustaqil va barqaror rivojlanishiga ko'mak beradi. O'zbekiston o'ziga xos, uzoq tarixiy, tajriba sinovlaridan o'tgan, ajoyib an'analari, milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Shuning uchun o'zbek milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qoladi. Bugungi kunda o'zbek xalq asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. O'zbek halqining musiqa san'ati ildizlari juda qadimiydir. Ajdodlarimiz qadimiy «Zardo'sht» diniy kitobi «Avesto» yozuvlariga binoan, xudoga siqinishi bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlarda ham kuy – qo'shiqlar kuylangan. IX – XI – asrlarda O'rta Osiyoda musiqa faniga asos solingan, unda yashab ijod etgan olimlarning barchasi bu masala bilan shug'ullangan. XVII asrda Najmiddin

Kavkabiylar Buxoroda yashab ijod etgan bo'lib, birinchilardan maqom haqida o'zining ijobiy fikrini yozib qoldirgan. Darvesh Ali Changiy o'zidan avval yashab ijod etgan musiqashunoslar, cholg'uchilar haqida ko'plab ma'lumotlar qoldirgan. Birinchi bo'lib nota yozuviga asos solgan, olimlardan biri Mirzabegi Komil. U ilk bor notalarni ixtiro qilib. Xorazm maqomlarini birinchi bo'lib notaga tushirgan. O'zbek xalq musiqasi soda, ixcham va mukammal shakllarda bo'lib, hilma – hil janrga boy o'zbek xalq musiqasi o'zining boy badiiy darajasi va ijrochilik ta'lablariga qarab 2 turga bo'linadi.

1. Og'zaki an'anadagi kasbiy (professional) musiqa.

Ular milliy qadriyatini shuni yanada boyitib, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi.

O'zbek xalq musiqasining ommaviy qo'shiq va kuylari badiiy mazmuni va hayotiy o'rniga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Mavsum – marosim kuy – qo'shiqlari (yor – yorlar, marsiyalar, yo'qlorlar).

2. Mehnat qo'shiqlari

3. Kunda ijro etiladigan kuy – qo'shiqlar.

Xalq ommaviy qo'shiqlarining deyarli barcha janrlari xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan barmoq vaznidagi she'rlar bilan kuylanadi. Zotan she'r va kuy qadimdan mushtarak yaratiladi. O'zbek xalq musiqasining og'zaki an'anadagi ustozona musiqalariga maqollar, turli musiqa janrlari, (ore) opera, balet, simfoniyalar, kompozitorlarimiz ijod qilgan turli kuy – qo'shiqlar kiradi. O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy qadriyatlari oliy insoniy fazilatlari va mustaqillik uchun kurashi tasvirlanadi. Milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga o'rgatish esa, musiqa ma'daniyati darslarida amalga oshiriladi. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shaklidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda xalqning milliy jihatlari har doim saqlanib qolgan. O'zbeklarning milliy ma'naviyati o'ziga xos, sharqona ahloqiy fazilatlari, bola tarbiyasida o'z aksini topgan. Musiqa san'atining

